

ASAR NOTA MATNINI TO‘G‘RI IJRO ETISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH



Mahammadjon Mamatqulov

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom xonandaligi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tajribadan ma’lumki, ijrochining nota matniga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ichki eshitish qobiliyati ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Ya’ni bunday ijrochi nota matni belgilariga ko‘zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, ijrochidagi “ko‘rish orqali eshitish” qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning nota matniga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo‘ladi. Ushbu maqolada bo‘lajak ijrochilarni asar nota matniga qarab to‘g‘ri ijro etish ko‘nikmasini shakllantirish masalalari ilmiy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tovush, asar, nota matni, rivojlantirish, ijro, repertuar, ohang, talaba, temp.

Аннотация. Из опыта известно, что чем более развита способность исполнителя исполнять по нотному тексту, тем более развит его внутренний слух. То есть, как только такой исполнитель видит знаки нотного текста, он может услышать этот звук без исполнения. Следовательно, чем более развита способность исполнителя «слышать через зрение» тем качественнее будет его способность исполнять по нотному тексту. В данной статье научно анализируются вопросы формирования у будущих исполнителей навыков правильного исполнения произведения по нотному тексту.

Ключевые слова: звук, произведение, нотный текст, развитие, исполнение, репертуар, мелодия, студент, темп.

Abstract. It is known from experience that the more a performer's ability to perform according to the musical text is developed, the more their inner hearing is developed. That is, as soon as such a performer sees the signs of the musical text, they can hear this sound without performing it. Consequently, the more developed the performer's ability to "hear through vision," the better their ability to perform according to the musical text. In this article, the issues of forming future performers' skills in correctly performing the work based on the musical text are scientifically analyzed.

Keywords: sound, work, musical text, development, performance, repertoire, melody, student, tempo.

Tanlangan yangi asarni ijro etish nota matnini tahlil etib, tegishli cholg‘uda “o‘qish” (chitka), ya’ni ijro qilib ko‘rishdan boshlanadi. Nota matnining to‘g‘ri talqin etilishi uchun talabanning nazariy bilimlari va ijro malakalari bo‘lishi shart. Nota matnini dastlabki ijro qilish davrlarida imkoni boricha sanab, sekin tempda boshlash katta ahamiyatga ega. Chunki, noto‘g‘ri talqin etilgan nota yoki jumla talaba tomonidan o‘zlashtirilgandan keyin uni to‘g‘rilash ancha qiyin kechishi mumkin. Nota matnining ma’lum qismi talaba tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirib bo‘lingandan keyin asar tempini tezlashtirish mumkin. Asarning qiyinroq bo‘laklarini o‘zlashtirish davrida

o'qituvchi talabaga mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Bu mashqlar talabaning ijro texnikasi o'sishi uchun xizmat qiladi.

Nota matniga qarab ijro etish murakkab jarayonlardan biri bo'lib, muntazam ravishdagi maxsus mashqlar yordamida o'zlashtirilib boriladi. Nota matniga qarab ijro etishda qo'yidagi qismlarga alohida e'tibor berish kerak:

nota tasvirining talaba ongiga teran yetib borishi, uning musiqiy tafakkurida yorqin aks etishi;

talabaning qaysi harakatni amalga oshirishi lozimligini aniq anglab olishi;

va nihoyat, zarur ijroi harakatlar orqali berilgan nota matnining benuqson, musiqiy ifoda bilan hayotga tatbiq etilishi.

Nota matniga qarab ijro etish jarayonining tez yoki sust kechishi, avvalo, ijrochining nota tasvirini qanchalik tez qabul qilishi, uni anglab yetishi va zarur harakatni o'z vaqtida amalga oshira bilishiga bog'liqdir. Jarayonning ushbu bo'g'inlaridan biri yetarlicha shakllanmagan bo'lsa, nota asosida ijro etishda kutilgan yuqori samaraga erishish tobora mushkullashadi.

Nota bilan ijro o'rtasidagi murakkabliklardan yana biri shundaki, cholg'uchi asarning bir bo'lagini ijro etar ekan, shu zahotiy oq keyingi qismini ko'zdan kechirib, uning ijrosiga ruhiy va texnik jihatdan hozirlana boshlaydi. Aynan mana shu lahzalar musiqiy tafakkur, diqqat va mahoratning uyg'un mehnatini talab qiladi.

Tajriba yetishmaydigan talabalarning ko'pchiligi ushbu murakkab jarayonni bir maromda olib bora olmaydi va natijada ularning ijrosida sezilarli uzilishlar yuzaga keladi. Diqqatni bir yo'nalishga jamlay bilish — nota matniga qarab ijro etish ko'nikmasining muvaffaqiyatli shakllanishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Mazkur qobiliyatni rivojlantirishda esa amaliy mashqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, eng sodda musiqiy misollardan boshlanib, talaba taktning birinchi yarmi ijro etilayotgan paytda e'tiborini shu taktning keyingi yarmiga qaratadi. Xuddi shu uslub asarning navbatdagi taktlarini ijro etishda ham qo'llanib, talabaga kelgusi bo'laklarni oldindan ko'zdan kechirib, ularning ijrosiga ruhiy va texnik tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalarga beriladigan vazifalar asta-sekin murakkablashtirib boriladi, biroq bu topshiriqlar har doim ularning individual imkoniyatlari darajasiga mos bo'lishi talab etiladi. Talabalarda nota matniga qarab ijro etish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar musiqa pedagogikasida alohida ahamiyatga ega. Sohadagi yetuk mutaxassislar va tajribali pedagoglarning ta'kidlashicha, nota matniga qarab ijro etish mashqlari ijrochining kundalik tayyorgarlik jarayonida doimiy o'rin egallashi shart. Zero, bu mashqlar nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tafakkur, diqqat va ijro madaniyatining izchil shakllanishini ta'minlaydi.

Talabaning nota matniga qarab ijro etishga doimiy ravishda mashq qilishi uning turli darajadagi, rang-barang musiqiy asarlar bilan tanishishiga keng imkon yaratadi. Bunday asarlarning barchasini kelajakda yod olish shart emas — ularning ko'pi talabaning musiqiy tafakkurini boyitish, ilgari sezmagani taassurotlar bilan tanishtirish va ijodiy idrokini kengaytirish maqsadida ijro etiladi.

Mazkur jarayon davomida ijrochining fikrlash faolligi ortadi, musiqiy belgilarni qabul qilish, ulardan ma'no chiqarish qobiliyati sezilarli darajada o'tkirlashadi. Shu bilan birga, talaba nota matniga qarab ijro etayotgan asarga butun vujudi, bor his-tuyg'usi bilan sho'ng'iydi. Natijada ijro jarayonida nafaqat texnik mahorat, balki ruhiy kechinmalar, estetik idrok va ichki sezgirlik ham faol ishtirok etadi.

Shundan kelib chiqadiki, nota asosida ijro etish mashg'ulotlari ijrochining repertuarini, nazariy bilimlarini va amaliy malakasini boyitibgina qolmay, balki uning musiqiy tafakkuri va idrok

jarayonini sifat jihatdan yuksaltiradi. Bundan tashqari, nota matniga qarab ijro etish — talabaning musiqiy savodini rivojlantirishda eng samarali yo‘llardan biridir. Zero, cholg‘u ijrochiligi ta‘limi o‘z oldiga talabaning musiqiy qobiliyati va professionalligini izchil takomillashtirishni asosiy maqsad qilib qo‘rgan ekan, nota asosida ijro etish ushbu maqsadning ro‘yobga chiqishida eng muhim, maxsus va ajralmas vosita sifatida xizmat qiladi.

Garchi nota matniga qarab ijro etishning ahamiyati musiqiy ta‘lim jarayonida keng e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu ko‘nikmaga yetarli darajada doimiy e‘tibor qaratilmasligi kuzatiladi. Albatta, nota asosida ijro etishga qancha ko‘p vaqt sarflansa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo‘lishi tabiiy. Biroq bu jarayon faqat ko‘p mashq qilish bilangina emas, balki ongli ravishda nazorat qilingan, puxta tashkil etilgan metodik yondashuvni ham talab etadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijrochining nota matniga qarab ijro etish darajasi qanchalik yuksak bo‘lsa, uning ichki eshitish — ya‘ni tovushni amalda ijro qilmasdan turib idrok eta olish qobiliyati ham shuncha mukammal bo‘ladi. Bunday ijrochi nota belgisiga ko‘zi tushishi bilan, go‘yoki ichki qulog‘ida shu tovush baralla jaranglaydi.

Demak, musiqachida “ko‘rish orqali eshitish” deb ta‘riflanadigan qobiliyat qay darajada rivojlangan bo‘lsa, uning nota matniga tayangan holda ravon, aniqlik bilan ijro eta olishi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu esa musiqiy tafakkur, professional eshitish tizimi va ijro madaniyatining o‘zaro uyg‘un holda takomillashganidan dalolat beradi.

Notaga qarab ijro etishning muhim shartlaridan yana biri ijrochining nigohi nota tekstidan uzilmasligidir. Cholg‘u torlari va pardalar joylashuvini yaxshi o‘zlashtirib olmagan talabalarning nigohlari dam nota tekstiga, dam cholg‘u grifiga ko‘chib turadi. Talaba notaga qarab, uning balandligini belgilab olgandan so‘ng, nigohini cholg‘u grafikasidagi pardalarga ko‘chirishga majbur, chunki pardalarni yaxshi o‘zlashtirib olmaganligi sababli grifga qaramasdan barmoqlarni pardaga aniq qo‘ya olmaydi. Navbatdagi notani aniqlashda talaba yana nigohini nota tekstiga ko‘chiradi. Bunday vaziyatda ko‘p talabalar tekstning qaysi joyiga kelganliklarini yo‘qotib qo‘yadilar. Kerakli joyni topish uchun esa bir oz vaqt talab etiladi. Mana shu kamchiliklar natijasida talabaning ijrosida noto‘g‘ri to‘xtashlar sodir bo‘ladi. Bu esa asarning uzluksiz ijrosiga putur etkazadi. Shu sababli ijrochi nigohining bir manbadan ko‘chishi qanchalik kam bo‘lsa, shunchalik ijro uchun foydali bo‘ladi.

Demak, cholg‘u ijrochiligi ta‘limida talaba - sozandaning cholg‘u grafaga qaramasdan kerakli pardani topa bilishni boshqa ko‘nikmalar qatori muntazam ravishda o‘rganib borishi notaga qarab bemalol ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Notaga qarab ijro etishni amalga oshirayotgan paytda talabadan nota yozuvidagi barcha belgilariga qat‘iy rioya qilishni birdaniga talab qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi bu jarayonda talaba birinchi navbatda e‘tibor berishi kerak bo‘lgan narsalarni olindan tushuntirib, belgilab berishi katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, talaba asarlardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinchi navbatda e‘tibor berishi kerak. Ya‘ni asarda bayon etilgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Nota matniga qarab ijro etish asarda keltirilgan musiqiy fikrlar asosida tashkil etish yaxshi natija beradi. Notanish musiqa asarlarini notaga qarab ijro etishdan oldin ko‘zdan kechirib, tanishib chiqish, ya‘ni shu asarni cholg‘usiz “ijro etish” tavsiya qilinadi. Bunda, birinchidan, sozanda bevosita ijro harakatlaridan xoli bo‘ladi, ikkinchidan, asarning tuzilishini o‘rgatish imkoniyati tug‘uladi, shu alohida aytish mumkinki, o‘quvchi asarning nota yozuvini ko‘zdan kechirib, cholg‘usiz “dilda” ijro etishi uning ichki eshituv qobiliyatini ma‘lum darajada rivojlantirib boradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, musiqa asari bilan bunday tanishuvdan keyin ijro ancha yengil va aniqroq amalga oshiriladi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolar kamayadi va sof ijro erkinligi ta‘minlanadi.

Har bir inson o'z individual xususiyatlari bilan boshqalardan farq qilishi ma'lum. Mutlaqo bir xil xususiyatga ega insonlar bo'lmagani kabi, har bir talabaning ham iqtidori o'ziga xos va takrorlanmasdir.

Ta'lim – tarbiya jarayonining talablari barcha talabalar uchun yagona bo'lib qolaveradi. Yuksak natijaga erishish uchun talabalarga nisbatan pedagogik vositalarni qo'llash, ta'lim jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shu xususiyatlar asosida ishni tashkil etish lozim hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida talabalarga individual yondashish, ular bilan yakka holda dars mashg'ulotlarini olib borish doimo ijodiy xarakterga ega. Bu jarayonning har bir bosqichiga oldindan aniq ko'rsatma berib bo'lmaydi. Pedagogikada individual yondashish masalasi ta'lim-tarbiya ishining barcha bo'g'inlarini o'z ichiga oladi. Individual (yakka) yondashishning mohiyati talaba oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning, uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshirilishidir. Dars mashg'ulotlari davomida xulqi, xarakteri, salohiyati, qobilyati, iqtidori turlicha bo'lgan talabalarni uchratish mumkin. Bazi talabalarning iste'dodlari tez sezilsa, boshqalarida iste'dodlarini aniqlash ancha vaqt talab etadi. Talabalar bilan individual ishlash jarayonida birinchi navbatda ularda ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini yo'qotishga qaratish lozim. Talabalarning salbiy sifatlarni o'qituvchi vaqtida sezib, bartaraf etish choralarini ko'rishi, kelajakda talabani qayta tarbiyalashdek qiyin ishning oldini oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabaga individual yondashish samaradorligini oshirishda talaba xarakteridagi ijobiy sifatlarga tayanish foydali hisoblanadi, degan fikr avvaldan ma'lum. Masalan, cholg'uni o'rganayotgan talabada biror usul boshqalariga nisbatan yaxshi rivojlangan deylik, repertuar tanlashda o'qituvchi talabaning xuddi shu sifatlarni hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu talabadagi kamroq rivojlangan sifatlarga e'tiborsizlik bilan qarash, degani emas. Aksincha talabadagi ijobiy sifatlardan unumli foydalanish ularda kamroq rivojlangan sifatlarni ishga solish va mukammallashtirishga yordam beradi.

Cholg'u ijrochiligi fani orqali ijroni o'zlashtirishning birinchi bosqichlarida:
o'ng va chap qo'llarning holati;

qo'llar asosiy harakatlarini alohida o'rganish o'rgatish maqsadga muvofiq, keyinchalik ikkala qo'l harakatining bir-biriga mutanosabligi asosida ish olib boriladi. Ya'ni o'rtacha qiyinchilikdagi musiqa asarini ijro etish paytida ikkala qo'l harakatiga sozanda bir xil e'tibor berishi kerak. Agar bu vaqtda ijrochi talaba e'tiborni bir qo'lga qaratib, ikkinchisini nazoratdan chiqarib qo'ysa, albatta ijro kamchilikdan xoli bo'lmaydi. Bunday vaqtda uchraydigan kamchiliklardan biri talaba chap qo'l barmoq almashinuvining o'ng qo'l tovush hosil qilish harakati bilan mutanosibligini buzishidir. Masalan, birinchi tovush ijro etilgandan so'ng, ikkinchi tovush o'ng qo'l yordamida chalinadi-yu, lekin chap qo'lning barmog'i kerakli paytda ko'rsatilgan pardani bosishga ulgurmaydi. Natijada, tovush umumiy eshitilmaydi yoki bo'g'iq jarangsiz bo'ladi. Goxida esa buning aksi ham bo'lishi mumkin. Yana bir kamchilik, tordan-torga o'tib ijro etishda qo'llar xarakatining nomutanosibligidir. Bunda chap qo'lning barmoqlari bir tordan boshqa torga o'tish vaqtida ulgursa, o'ng qo'l harakatni vaqtida bajara olmaydi. Osoyishta, rez bilan uzilmasdan ijro etishni talab qiladigan kuyalarda chap qo'l barmoqlari almashgan paytda rez usulini bajarayotgan o'ng qo'lning harakati, odatda, uzilib qoladi, ohangning uzluksizligi buziladi. Va nixoyat, chap qo'lning barmoqlari har bir yangi tovush ijrosi paytida bosish harakatini qaytadan ta'kidlab amalga oshiradi. Bunday harakat ham kuyning uzilishiga olib keladi. Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarning barchasi talabaning e'tiborsizligidan yoki ijro vazifasini to'g'ri tushunib yetmasligidan dalolat beradi.

O'qituvchi bu jarayoni sababini aniqlab, talabaga tushuntiradi, uni yo'qotish choralarini belgilaydi. Talaba ijrochilarning o'ng va chap qo'l harakati bir xil bo'lmasligi mumkin, ya'ni chap qo'l barmoqlarining harakati talab darajasida bo'lsa, o'ng qo'l harakatchan bo'lmasligi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Bunday holda talaba uchun tanlangan repertuar va texnik materiallar shu kamchilikni yo'qotishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Lutfullayev A. "Chang tarannum etganda" T., O'quv qo'llanma, 2004.
2. Muxmedova G. "Kuyla dilkash dutorim" T., O'quv qo'llanma, 1998.
3. Usmonov Q. "Rubob darsligi" T., Darslik, 2004.
4. Rasultoyev J. "O'zbek dutor ijrochiligi" T., O'quv qo'llanma, 1997.
5. Nurmatov H. Qashqar rubobi. Toshkent., O'quv qo'llanma, 2003.
6. Yunusov R., Mamadaliev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" Toshkent, 2001.